O‘ZBEK TILIDA PROSODIK BELGILAR VA ULARNING XUSUSIYATLARI

Samarqand davlat chet tillar instituti 2-kurs talabasi
Mardonova Kibora Ravshanovna
mardonovakibora09@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tili fonetikasining muhim masalalaridan bo‘lgan prosodika masalasi to‘g‘risida fikr yuritiladi. Maqola mazmunida urg‘u, intonatsiya, pauza, tembr, temp, melodika, ritm kabi o‘zbek tilining muhim prosodik beldilariga oid ma’lumotlar beriladi. Maqolada ularning o‘zbek tilida ma’no farqlashdagi va nutq ohangini so‘zlovchi maqsadiga ko‘ra tinglovchiga yetkazishdagi ahamiyati haqida so‘z borgan. Qolaversa, prosodik belgilarning ahamiyatiga doir gaplar berilgan va ular asosida tahlil davom etgan. Maqola so‘ngida beriladigan xulosa o‘zbek tili fonetikasi va prosodiyasiga oid ma’lumotlarga asos bo‘la olishi mumkin.

Kalit so‘zlar. Prosodika, prosodik belgilar, urg‘u, intonatsiya, pauza, tembr, temp, melodika, ritm, fonetika, melodika, ma’no farqlash

“Prosodika” bu atama yunoncha “prosodia” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “pros”- qo‘shish va “od”- kuylamoq degan ma’nolarni bildiradi. Ma’lumki, har bir tilda og‘zaki nutqning musiqiyligi va ma’no aniqligini prosodik belgilar ta'minlaydi. Prosodik belgilar: ohang, urg‘u, temp, tembr, pauza fonetika bilan bir qatorda butun bir til masalalarining ajralmas qismidir. O‘zbek tilida ham boshqa tillar kabi prosodik belgilar so‘zlovchi gapining ma’nosini, maqsadini, qolaversa, so‘zlovchining gapga bo‘lgan munosabati, ichki kechinma va hissiy holatini tinglovchiga yetkazishda yetarlicha rol o‘ynaydi. Mazkur maqolada aynan shular tahlil qilinadi, prosodik belgilarga birma-bir to‘xtalib, ularning o‘ziga xos xususiyatlari va nutqiy jarayondagi vazifasi, qay o‘rinda qay ma’noni ifodalab kelishi fikr mavzusi bo‘ladi. Shu bilan birga, yozma nutqda prosodik belgilarning

tinish belgilari bilan ishlashi ko‘rib chiqiladi. Va bu ma’lumotlar o‘zbek tili fonetikasining boy va ifodali ekanligini anglashga yordam beradi.

O‘zbek tilida prosodik belgilar haqida gap boshlar ekanmiz, dastlab, e’tibor urg‘uga qaratiladi. Urg‘u nafasni kuchaytirish, ovozni balandlatish, unlilarning cho‘ziq talaffuz qilinishi orqali so‘zdagi ma’lum bo‘g‘inni yoki gapdagi ma’lum bir so‘zni, tushunchani ajratib ko‘rsatishga qaratilgan kuchli talaffuz bo‘lib, u ajratish obyektiga ko‘ra 2ga bo‘linadi: 1. So‘z urg‘usi. 2. Gap urg‘usi. Bulardan so‘z urg‘usi-o‘zbek tilida omonimlarni ajrata olishda faol. Masalan, olmá- meva, ólma-olmoq fe’lining bo‘lishsiz shakli; akadémik-ilmiy unvon (ot); akademík-sifat. Tilimizda so‘z urg‘usi ko‘chuvchan bo‘lib, so‘z oxiriga tushadi, agar so‘zga ma’lum bir qo‘shimcha qo‘shilsa, so‘z urg‘usi ham ko‘chishi mumkin: lolá- lolazór, bolá-bolalár-bolalargá. O‘zbek tili prosodikasining ham boshqa tillardan farqi ham aynan shunda, ya'ni boshqa tillarda so‘z urg‘usi o‘zgarmaydi, o‘zbek tilida esa buning aksi. Yuqoridagi fikrga istisno sifatida ta’kidlash joizki, ba’zi qo‘shimchalar, yuklamalar va ko‘makchilar so‘zda urg‘u olmaydi. Bular: fe’lning bo‘lishsizlik shakli (-ma), sonning ma’no turlarni hosil qiluvchi qo‘shimchalar (-ov, -ovlon, -tacha), qo‘shimcha yuklamalar (-mi, -chi, -gina, -dir), fe’lning zamon qo‘shimchalari (-gan,-di, -moqchi). Gap urg‘usiga to‘xtalsak, o‘zbek tilida, asosan, gap urg‘usi kesimdan avval keluvchi so‘zga tushadi. Masalan, *Men bugun ko‘ylak olgani bordim; Bugun ko‘ylak olgani men bordim; Ko‘ylak o‘lgani men bugun bordim.* Yuqoridagi misollarda ko‘rinib turganidek, gapda urg‘uni olgan so‘z kesim oldidan kelgan va bu so‘zlovchining mavzuda (gapda) aynan qaysi so‘zga e’tiborni tortayotganini ko‘rsatib bermoqda.

Prosodiya o‘rganadigan ohang va intonatsiya tushunchalari o‘zaro bog‘liq. Ikkala tushuncha ham ma’noviy izchillikni ta'minlashga xizmat qiladi. Ular har xil emotsional, sintaktik va ekspressiv ma’nolarni ifodalab, gap urg‘usi bilan bevosita bog‘liq sanaladi. Quyidagi 2 gapga e’tibor qaratsak:

1. Ertaga Mubina qizim maktabga chiqadi.

2 Ertaga, Mubina, qizim maktabga chiqadi.

1-gapda ismning ajratilmasligi, urg‘u va intonatsiya bilan aytilmasligi izohlovchi aniqlovchining qaysi so‘zni aniqlab kelayotganini bildirsa, 2-gapda u undalma hosil bo‘lishiga xizmat qilmoqda. Shuningdek, ular so‘roq, darak, his-hayajon, qo‘rquv kabi hislarni ifodalashda ahamiyatlidir. Shuningdek, intonatsiya she'r, qo‘shiq kabi ijodiy ishlarda muhim sanaladi.

Ifodali o‘qishning asosi bo‘lgan pauza- nutq jarayonidagi kichik to‘xtam yoki tinishlardir. Nafaqat o‘zbek tilida, balki boshqa barcha tillarda, asosan, badiiy uslubda pauzaning o‘rni yetarlicha bo‘lib, u qahramonlar ichki hissiyotlarini ifodalaydi va pauza yozma nutqda vergul(,), nuqta (.), ko‘p nuqta (...), undov (!), so‘roq (?) bilan ifodalanadi. Masalan, Insonlar... Ba’zan shunchalar vahshiyki,anglamay qolasiz, qayeringiz og‘riyotganini.

Yana bir misol:

1. Aldasam (pauza) sizni yer yutsim.

2.Aldasam sizni (pauza) yer yutsin.

Ritm grekcha so‘z bo‘lib, vazifadosh, ohangdosh kabi ma’nolarni beruvchi so‘zdir. Asosan, she'r va mumtoz she'rlarda uchrovchi ritm mazmun va qofiyaga ko‘rsa saqlanadi. Masalan,

Vodiylarni yayov kezganda,

Bir ajib his bor edi manda.

Temp ritm tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq, qachonki, ish ma’lum tartibda qilib borilsa, bajaruvchini charchatmaydi va samarali bo‘ladi, temp ham shunday tushunchadir. Agar nutqda tempga e’tibor qaratilmasa, nutq jonsiz, so‘lg‘in va ta'sirsiz bo‘lib qoladi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, prosodik belgilar har bir til uchun shu qatorda o‘zbek tili uchun ham muhim ahamiyatli hisoblanadi, u fonetika, sintaksis, punktuatsiya bo‘limlari uchun bahsli mavzu bo‘lib, o‘zbek tili sintaktik birliklar, ohangdor jumlalarga boy bo‘lganligi bois o‘zbek tilshunosligida alohida e’tiborga

loyiqdir. Zero, prosodik vositalar nutqning shunchaki bezagi emas, balki fikrning emotsional-ekspressiv bo‘yog‘ini va so‘zlovchi maqsadini tinglovchiga aniq yetkazuvchi asosiy mexanizmdir. O‘zbek tili nutqiy jarayonida urg‘u, ohang va pauza kabi unsurlarning o‘zaro uyg‘unligi tilning estetik jozibasini ta’minlash bilan birga, muloqot samaradorligini ham oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish.-Toshkent.Sharq,2010, 175b.

2. Axmedov A. Notiqlik san’ati .-Toshkent. 1967. O’zbekiston, 1967, 54b.

3. Jo‘rayev K. Ifodali o‘qish va himoya qilish.-Toshkent. O’qituvchi.1986, 128b

Internet manbalari:

1. uz.wikipedia.org

2. upraktika.uz

3. scribd.com